

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O.T.Tursunov, F.R.Holboev Qashqadaryo viloyatining aholi zich joylashgan hududlarida tarqalgan <i>Rodentia</i> turkumi vakillarining ekologik holati..... | 117 |
| B.M.Sheraliyev, D.E.Urmonova, O.S.Azamov <i>Cottus spinulosus</i> kessler, 1872 (Teleostei: Cottidae) populyatsiyalari orasidagi genetik farqlanish | 120 |
| F.N.Xabibullayev, M.M.Yunusov Farg'ona vodiysida turli xil genotipdagi asalarilardan to'plangan asalning kimyoviy tarkibi | 125 |
| U.I.Obidjanov Biologiya o'qitish metodikasi kursi «Hayvonlar» bo'limi" infuzoriya-tufelka" mavzusi bo'yicha laboratoriya ishlarini takomillashtirish | 129 |

GEOGRAFIYA

| | |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| B.B.Eshquvvatov O'rta Zarafshon konussimon yoyilma landshaft komplekslari..... | 133 |
| Y.Karimov, Q.Yarashev Sirdaryo viloyatida tuproq sho'rli sizoq suvlari sathi va minerallashuvio'zgarishini o'rganish usullari | 139 |
| R.T.Pirnazarov To'g'onli ko'llar va ularning genezisi haqida..... | 144 |

ILMIY AXBOROT

| | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| M.M.Xolmatova Talabalarda gigiyenik madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari..... | 150 |
| R.R.Mamatov Gerta Myuller asarlarining badiiy xususiyatlari | 156 |
| R.U.Abdullazizova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi | 156 |
| R.U.Abdullazizova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida olam rangli-lisoniy manzarasini shakllantirishning samaradorligi | 159 |
| A.A.Mirzayev Ibn Arabiyning tasavvufiy-irfoniy qarashlarida "Vaahdat ul-vujud" konsepsiyasi tahlili | 163 |
| L.K.Karshibayeva, H.E.Egamqulov Sirdaryo viloyatining demografik vaziyati va uning geografik jihatlari..... | 166 |
| A.A.Yo'ldoshev O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar strategiyasi..... | 171 |
| S.Kunduzaliyeva Dars jarayonlarida mediyata'limdan foydalanishning ahamiyati | 174 |
| N.R.Eshchanova Nafs tarbiyasida tasavvuf ilmining ahamiyati | 178 |
| M.B.Radjabova O'zbekistonda turar-joy masalasining tarixiy-huquqiy asoslari va davlat tomonidan tartibga solinish asoslari | 182 |
| S.Isroiljonov, V.A.Karimov Talabalarni jismoniy salomatlik ahvolini darajasi | 186 |
| D.I.Umirzakova Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining tolerantlik tafakkurini "Yumshoq ko'nikmalar" asosida rivojlantirish mazmuni | 190 |
| K.N.Murodov Sport kurashida sportchilarining kuch chidamliligini rivojlantirish va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi | 196 |
| Q.Sh.Omonov, N.A.Abdullayeva Oziq-ovqat mahsulotlarini kishi sog'ligiga ta'siri aks etgan maqollarning lingvomadaniy tahlili | 203 |
| Sh.N.Nurova Ibn Sino ta'limotida inson masalasi va insoniy xislatlar to'g'risida | 206 |
| Z.N.Usmonov Sog'lom bo'lish uchun och qolish | 209 |

**O‘ZBEKISTONDA TURAR-JOY MASALASINING TARIXIY-HUQUQIY ASOSLARI VA
DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISH ASOSLARI**

**ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ВОПРОСА ЖИТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ И
ОСНОВЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ**

**HISTORICAL AND LEGAL BASIS OF THE ISSUE OF RESIDENCE IN UZBEKISTAN AND THE
BASIS OF STATE REGULATION**

Radjabova Munisa Baxtiyor qizi¹

¹Radjabova Munisa Baxtiyor qizi

— Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch
doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda turar-joy masalasining tarixiy-huquqiy va unga doir jarayonlar hamda munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solinish asoslari haqida so‘z yuritilgan. Uy-joyga bo‘lgan ehtiyoj eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib, universal xarakterga ega va aholining barcha qatlamlariga taalluqli hisoblanadi. Bu o‘zgartirib bo‘lmaydigan, barqaror va tobora o‘sib borayotgan ehtiyoj sanaladi. Jamiyatdagi odatiy, normal turmush tarzi, insonning shaxs sifatida shakllanishi hamda xavfsizligi uchun turar-joyga egaligi muhim hisoblanadi. Maqolada, shuningdek, O‘zbekistonda uy-joylar fondini boshqarish tizimini tashkil etish amaliyoti haqida va sohani rivojlantirish istiqbollari haqida ham konseptual fikrlar bildirilgan.

Аннотация

В данной статье говорится об историко-правовых процессах жилищного вопроса в Узбекистане и основах государственного регулирования отношений. Потребность в жилье является одной из наиболее актуальных проблем: она носит универсальный характер и затрагивает все слои населения. Это незаменимая, стабильная и постоянно растущая потребность. Владение жильем важно для обычного, нормального образа жизни в обществе, для становления человека как личности, для безопасности. Также в статье представлены концептуальные представления о практике организации системы управления жилищным фондом в Узбекистане и перспективах развития отрасли.

Abstract

This article describes the historical and legal processes of the housing issue in Uzbekistan and the foundations of state regulation of relations. The need for housing is one of the most pressing problems: it is universal and affects all segments of the population. It is an irreplaceable, stable and constantly growing need. The possession of housing is important for the usual, normal way of life in society, for the formation of man as a person, for security. The article also presents conceptual views on the practice of organizing the housing stock management system in Uzbekistan and the prospects for the development of the sector.

Kalit so‘zlar: turar-joy, qurilish, uy-joy fondi, shaharsozlik, qishloq aholisi, me‘morchilik.

Ключевые слова: жилье, строительство, жилищный фонд, градостроительство, сельское население, архитектура.

Key words: housing, construction, housing stock, urban planning, rural population, architecture.

KIRISH

Mamlakatimizda fuqaroning uy-joy bo‘yicha huquqlari birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z aksini topgan bo‘lib, unga ko‘ra, Konstitutsiyaning 32-moddasida “Qonuniy asoslarda O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lib turgan har kim mamlakat bo‘ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno” deb belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 47-moddasiga asosan, “.... Davlat uy-joy qurilishini rag‘batlantiradi va uy-joyga bo‘lgan huquqning amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlar yaratadi. Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta‘minlash tartibi qonun bilan belgilanadi” deb keltirilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizda aholining uy-joy bilan ta‘minlanishi, uning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq jarayonlar Shaharsozlik kodeksi va Uy-joy kodeksi, 20 dan ortiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishlari va Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari orqali tartibga solinadi.

Mamlakatimiz dunyo tamaddudining eng qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yuritimizning qadimiy shaharlarida joylashgan o‘rta asr me‘morchiligi yodgorliklari alohida qiziqish uyg‘otadi. O‘zbekistonning jahon merosi ro‘yxatiga kiruvchi shaharlari hisoblangan shaharlari Xiva,

Buxoro, Samarqand, Qo'qon tarixiy majmualari va yodgorliklarining o'ziga xosligi jahon tamaddudini taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Faqat mustaqillik yillaridagina me'morchilik yodgorliklari ta'miri bo'yicha bunyodkorlik faoliyati keng quloq yoydi. Tarixiy shaharlardagi me'morchilik yodgorliklari va shaharsozlik majmualarini qayta tiklash O'zbekiston Respublikasining davlat siyosati bo'lib qoldi.

Mustaqillik yillarida qurilgan turli binolar va qayta tiklangan me'moriy yodgorlik majmualarining o'ta milliyligi, shuningdek ularda o'rta asrlar me'morchilik an'analarning aks etganligi bilan ahamiyatlidir. Tarixiy-me'morchilik majmualarni qayta tiklash va rivojlantirish, shuningdek ushbu majmualarda bog'-park san'ati me'moriy-shaharsozlik hamda dekorativ-amaliy san'at o'zaro hamkorligining tarixiy an'alarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aholi uchun turar-joy va shaharsozlik g'oyalarini ishlab chiqishda hamda qurilishni amalga oshirishda ijtimoiy, iqtisodiy, samaradorlik masalalari yechimini topish va bu borada ilmiy-fundamental tadqiqotlarni olib borish hamda inson omili, hayoti faoliyati uchun sun'iy muhitni yaratish o'z talablarini qo'ymoqda. Ta'kidlash lozimki, bu borada mamlakatimizda ko'plab ilmiy izlanishlar qilingan. Xususan, tadqiqotchi T.F.Qodirova fikriga ko'ra, turar-joy qurilishi eng muhim iqtisodiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Navbatdagi davrda yangi turar-joy qurilishi zarurati bilan bir qatorda mavjud tub turar-joy jamg'armasini saqlab qolish va yangilash muammosi ko'ndalang turibdi. Shuningdek, mutasaddi idoralar oldida mahallaning rejaviy tuzilishini saqlab qolish, eskirgan me'morchilik obidalarini qayta tiklash, bir necha asrlik turar-joy mahallalari landshaftini va yerdagi yashash muhitining tarixiy jihatini saqlab qolishdek muhim vazifa turibdi.

Shuningdek, tadqiqotchilar qurilish bilan bog'liq jihatlarni bevosita hududiylik bilan ham bog'lashga urinishgan. Xususan, I.Azimov "O'zbekiston arxitekturasi XVIII asr va XX asr boshi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida mamlakatimiz arxitekturasini quyidagi hududiylik tamoyillariga ajratgan holda o'rgangan:

- Buxoro maktabi;
- Qashqadaryo maktabi;
- Samarqand maktabi;
- Toshkent maktabi;
- Farg'ona maktabi;
- Xorazm maktabi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida yuqoridagi qonun hujjatlariga asoslangan holda mamlakatimizda aholini uy-joy bilan ta'minlash tizimining rivojlanish jarayoni davrlashtirildi. Fikrimizcha, ushbu jarayonlarni shartli ravishda quyidagi uch bosqichga bo'lishimiz mumkin.

1-bosqichda (1991-2008 yillar) mamlakatimizda aholini uy-joy bilan ta'minlashga tamal toshi qo'yilgan davr bo'lib, qonunchilik jihatdan tartibga solish ishlari amalga oshirilgan.

2-bosqichda (2009-2016 yillar) esa mamlakatimizda aholini uy-joy bilan ta'minlashda asosan qishloq hududlaridagi aholiga e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

3-bosqichda (2017 yildan hozirgacha) esa O'zbekistonda aholini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha yangi zamonaviy davrni boshlab berdi. Aynan shu bosqichga kelib aholining barcha qatlamlarini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha juda keng ko'lamli ishlar yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksida ham tarixiylik bilan bog'liq jihatlar o'z aksini topgan. Xususan, shaharsozlik faoliyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. Shaharsozlik faoliyati – bu davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning hududlarni va aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish, yer uchastkalaridan foydalanish turlarini belgilash, qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish, binolarni, inshootlarni hamda ularning majmualarini shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini, shuningdek mazkur hududlar hamda aholi punktlarining milliy, tarixiy-madaniy, ekologik, tabiiy o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish sohasidagi faoliyatidir.

Shuningdek, ushbu kodeksga ko'ra, hududida madaniy meros obyektlari bo'lgan aholi punktlarining bosh rejasi ishlab chiqilayotganda aholi punktlarining tarixiy-arxitektura rejasi va madaniy meros obyektlarining muhofaza zonalarini inobatga olinadi.

Ta'kidlanganidek, "2020-2023 yillarda shaharsozlik faoliyati sohasida texnik jihatdan tartibga solishga doir milliy normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish Dasturi" tasdiqlanib, ushbu Dasturga asosan jami 263 ta normativ hujjatlar qayta ko'rib chiqilishi belgilangan. Bu borada 2020 yilda 55, 2021–yilda 65 ta normativlar qayta ishlab chiqilgan bo'lsa, 2022–yilda 57 ta normativlarni qayta ishlab chiqish rejalashtirilayotir.

Shuningdek, "2019-2021 yillarda texnik reglamentlarni ishlab chiqish Dasturi"ga muvofiq Qurilish vazirligi tomonidan 2019 yilda bitta, 2020 yilda 2 ta maxsus texnik reglamentlar, 2021 yilda 5 ta umumiy texnik reglamentlar ishlab chiqilgani aytib o'tildi. Binolarning energiya tejamkorligi, sanuzellar, velo-yo'laklar, yo'l chorrahalari bo'yicha namunaviy loyihalar va normativ talablar ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda bunyodkorlik ko'lami kengaydi. Ayniqsa, ko'p qavatli uylar qurilib, aholining eng muhim talabi qondirilmoqda. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 161-bandi qurilish sohasini texnik tartibga solishga oid bo'lib, uning ijrosini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilayotir.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 noyabrdagi PF–6119-son Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021 – 2025 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi"da qurilish tarmog'ining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi tizimli muammolar sanab o'tilgan:

- shaharsozlik faoliyatini texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar sezilarli darajada eskirib qoldi hamda arxitektura-qurilish ishlarini olib borishning zamonaviy uslublarini, energiya tejamkor texnologiyalar va materiallarni keng qo'llash imkoniyatlarini inobatga olmaydi;

- ko'pchilik aholi punktlarida bosh rejalar mavjud emasligi yoki bino va inshootlarni qurishda ularga rioya qilinmasligi hududlarda kompleks ravishda qurilish olib borish, ishlab chiqarish va infrastruktura obyektlarini joylashtirish, tadbirkorlik, ishchanlik va investitsiya faolligini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- loyiha-qidiruv ishlarining mavjud bozori tendensiyalari ko'p hollarda loyiha ishining ilg'or rivojlanishi, yuqori texnologiyali, zamonaviy va o'ziga xos arxitektura loyihalarini yaratish uchun shart-sharoit tug'dirmaydi;

- shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillarining mukammal emasligi va oqibatda xodimlarni qurilish-montaj ishlariga noqonuniy asosda (kerakli hujjatlarni rasmiylashtirmasdan) jalb qilish, o'zboshimchalik bilan qurilgan binolarning ko'payishi, qurilish tashkilotlari xodimlarining zarur bilim va malakaga ega emasligi qurilish tarmog'ining investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda hamda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishda, qurilgan bino va inshootlardan keyinchalik foydalanishda xavfsizlik talablarining buzilishiga olib kelmoqda;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasining pastligi investitsiya jarayonlari ishtirokchilari va shaharsozlik faoliyati subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatishning maksimal shaffofligi va tezkorligini ta'minlash imkonini bermaydi;

- amaliy qurilish fanining rivojlanmaganligi, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy va moddiy-texnik salohiyati zaifligi kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish imkonini bermaydi.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, aholini uy-joy bilan ta'minlash muammolari bu deyarli barcha mamlakatlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda ko'plab mutaxassis va olimlar ushbu yo'nalish bo'yicha izlanishlar olib borishgan va ushbu yo'nalishni ilmiy jihatdan o'rganish, nazariy-metodologik asosini yaratish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirishgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu muammoga nazariy va ilmiy yondashuvlarni o'rganish orqali mamlakatimiz uchun mos bo'lgan ilmiy-nazariy yo'nalishlarni belgilab olishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон. <https://lex.uz/acts/6445145>
2. Т.Ф.Кадирова. Ўзбекистон замонавий архитектураси тарихи. Т. 2011 й. 75-б.

3. И.Азимов. “Ўзбекистон архитектураси XVIII аср ва XX аср боши” мавзусидаги архитектура доктори диссертацияси автореферати. Т. 1999 й.

4. Ўзбекистон Республикасининг Шаҳарсозлик кодекси. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 04.11.2022 й., 03/22/800/0990-сон. <https://lex.uz/docs/5307951>

5. Қурилиш соҳасини ҳуқуқий ва техник тартибга солиш муаммолари муҳокама этилди. https://uza.uz/uz/posts/qurilish-sohasini-huquqiy-va-texnik-tartibga-solish-muammolari-muhokama-etildi_366610

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020–йил 27-ноябрдаги ПФ–6119-сон Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси қурилиш тармоғини модернизация қилиш, жадал ва инновацион ривожлантиришнинг 2021 – 2025 йилларга мўлжалланган Стратегияси”. <https://lex.uz/ru/docs/5130468>